

TOPSHIRIQ TUSHUNCHASI VA BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

ПОНЯТИЕ ЗАДАНИЯ И ВАЖНОСТЬ ЗАДАНИЙ НА НАЧАЛЬНЫХ УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

THE CONCEPT OF TASK AND THE IMPORTANCE OF TASKS IN PRIMARY MOTHER TONGUE CLASSES

**Shavazova Nilufar
Musayevna**

1-O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute, Samarqand, O'zbekiston.

*O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika instituti
assistenti*

e-
mail: nilufar.shavaz
ova@gmail.com

Annotatsiya. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyati, fikrlashi, bilimlarni o'zlashtirib, takomillashtirish keng ma'noda mavzu doirasidagi o'quv topshiriqlari bilan uzviy bog'lanadi. Topshiriq o'quvchi faoliyatining barcha jabhalarida mehnat qilish, o'quv predmetlarini o'zlashtirish bilan aloqador bo'lganidek, o'quvchi faoliyatining har bir yo'nalishi o'yin ham, o'qish ham, bilimlarni o'zlashtirish ham, o'ziga o'zi baho berish ham o'quv topshiriqlari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu maqolada topshiriq tushunchasi va boshlang'ich sinf ona tili darslaridagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. topshiriq, o'quv topshirig'i, metodik ta'rif, boshlang'ich sinf, intellektual topshiriq, ijodiy topshiriq.

Аннотация. Известно, что деятельность, мышление, усвоение и совершенствование знаний учащихся начальной школы неразрывно связаны с учебными задачами внутри предмета. Поскольку задание связано с работой во всех аспектах деятельности учащегося, освоением учебных предметов, каждое направление деятельности учащегося является одновременно игрой и учебой, усвоение знаний и самооценка также тесно связаны с учебными заданиями. В этой статье обсуждается концепция задания и его важность в начальных классах родного языка.

Ключевые Слова. задание, учебное задание, методическое определение, начальный класс, интеллектуальное задание, творческое задание.

Annotation. It is known that activity, thinking, mastering and improvement of knowledge of elementary school students are inextricably linked with educational tasks within the subject. As the assignment is related to working in all aspects of student's activity, mastering educational subjects, each direction of the student's activity is both play and study, assimilation of knowledge and Assessment is also closely related to educational tasks. This article discusses the concept of assignment and its importance in primary mother tongue classes.

Key words. Assignment, educational assignment, methodical definition, primary class, intellectual assignment, creative assignment.

Boshlang'ich ta'limda topshiriqlar ta'lim maqsadi, vositasi sifatida qaraladi. Bu tushunchada topshiriq, o'quv topshirig'i, biluv topshirig'i, ijodiy topshiriq, amaliy topshiriq, intellektual topshiriq, muammo kabi atamalar bilan birga mashq, mustaqil

ish kabi atamalar ham qo'llaniladi. O'quv topshirig'i mohiyatini aniqlash, unga didaktik, metodik ta'rif berish uchun psixologiya, didaktika, metodikada o'quv topshirig'i tushunchasiga berilgan ta'riflarni keltiramiz.

Psixolog olim S.Rubinshteyinning fikricha o'quv topshiriqlari masalasi markaziy muammolardan biri hisoblanadi. Uning kuzatilaricha o'quv topshiriqlari to'g'risidagi fikrlar o'quvchi amal qilayotgan sharoitlar bilan aloqadordir. Insonning ongli faoliyati topshiriqlarni bajarishdir. Topshiriqda berilgan munosabat, maqsad, shart-sharoitga ko'ra topshiriq qabul qilinadi, yechiladi. Shunday bo'lgach, o'quv faoliyatining har bir turi topshiriq asosida yo'naltirilishi, u yoki bu motiv xususiyatidan kelib chiqib tashkil yetilishi lozim deb xulosaga keladi.

Leontev A.N. topshiriq tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Topshiriq-bu ma'lum shart asosida berilgan maqsaddir. U faoliyatni ishga tushiradi, motiv esa kishini faoliyatga undaydi. Insoniy faoliyatda xatti-harakat, faoliyat usullari ajratiladi. Bulardan birinchisi – xatti-harakat erishiladigan maqsad, ikkinchisi – faoliyat usullari esa maqsadni amalga oshirish shart-sharoitiga yo'nalgan tushuncha bu topshiriqdir" deb, o'z fikrini yakunlaydi.

O.Roziqovning ilmiy-pedagogik tadqiqotlarida o'quv topshirig'i o'quv materiallari bilan yonma-yon tahlil qilingan. Uning yozishicha "o'quv topshirig'i – bu o'qitish va o'qish ehtiyojiga ko'ra o'quv materialining o'zgartirilgan shakli". Bu ta'rifda o'quv topshiriqlarining qator xususiyatlari qayd etilgan. Ularni ta'lim ehtiyojiga ko'ra: 1) qurish mumkinligi; 2) qurish va qayta qurish imkoniyatining borligi; 3) o'quv materialining shakli ekanligi; 4) ta'lim jarayonining bosqichlarga mosligi; 5) bir topshiriq o'rniga boshqasini qo'llash imkoniyatining borligi; 6) topshiriqning ochiq tizim ekanligi; 7) bir-birini to'ldirishi; 8) bilim va faoliyat usullarini o'rganish hamda takomillashtirish talablariga mosligi; 9) ta'lim sharoitida o'qish va o'rganish ehtiyojini qondirish tavsiflab berilgan. Keltirilgan qarashlarga tayanib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan ijodiy topshiriqlar tizimini asoslash mumkin. Buning uchun topshiriqlar tushunchasida qo'llaniladigan asosiy tushunchaning ma'nolarini yanada oydinlashtirish, chegaralashga zaruriyatni hisobga olib bu tushunchaga ta'rif beramiz.

Topshiriq atamasi mazmunan boy, keng tushuncha bo'lib, u vazifa atamasiga qo'yiladigan kategoriyadir. Topshiriq buyruq fe'li topshir so'zidan – iq qo'shimchasi vositasida yasalgan ot bo'lib, ijtimoiy, fan, ta'lim-tarbiya sohasida ishlatiladi. Topshiriq keng ma'noda predmetni anglatgani uchun qandaydir obyektiv reallikni bildiradi. Binobarin tevarak atrofimizdagi narsa-hodisalar sifatida tasavvur etib, tahlil qilganimizdek, uni tuza olamiz, o'zga muhit sharoitida o'zgartira olamiz, uning harakatini kuzata olamiz. Bu xildagi tasavvur topshiriqning quyidagi turlarini qayd etish imkonini beradi:

1. Ijtimoiy topshiriq. Bu jamiyatning moddiy negizini yanada rivojlantirish, moddiy ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish mo'ljallangan vazifadir. Bu xildagi topshiriqlarni barcha kasb egalari o'z oldiga qo'yadi va bajaradi. Ularni qo'yish va hal qilish yo'li bilan jamiyat rivojlantiriladi. Ijtimoiy topshiriqjamiyat darajasida o'rganiladi.

2. Fan sohasiga qo'yiladigan topshiriqlar. Bunday topshiriqlarni fan xodimlari o'zi uchun belgilab, ularni bajaradi. Ular fan muammolari sanaladi. Muammo shaklida qo'yilgan savolga javob izlash yo'li bilan va undan amaliy faoliyatda foydalanish yanada takomillashadi.

3. Ta'lim-tarbiya sharoitida qo'llaniladigan topshiriqlar. Barcha o'quv predmetlari vakillari bunday topshiriqlarni ta'limga tatbiq qilib, ta'limdan ko'zlangan maqsadlarni amalga oshiradi. O'qitish va o'rganish jarayonlariga tatbiq qilib, o'quvchilarning bilimi, ko'nikmasi va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, tabiat, jamiyat, ong hodisalariga munosabatini shakllantirib, inson shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni o'quv topshirig'i deb tushunamiz.

O'quv topshirig'i atamasi psixologiya, didaktika va ona tili fanlari sohasida qo'llanadigan umumiy, mazmundor, ko'p qirrali kategoriyadir. Unda ta'limning barcha bo'g'inlarida maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kollej va kasb hunar ta'limi va boshqalarda o'zlashtirishning barcha bosqichlarida o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash, takrorlash va malaka hosil qilish, bilim va malakalarni umumlashtirish, ta'lim natijalarini nazorat qilishda foydalaniladi. O'quv topshiriqlarining nimaga mo'ljallanganligini inobatga olib, ularni ikki guruhga ajratib o'rganamiz.

1. Xotiraga mo'ljallangan topshiriqlarni ta'limga tatbiq etishda o'quvchilarning u yoki bu mavzu doirasidagi tayyorgarligi hisobga olinadi.

Misolar keltiramiz:

1-topshiriq. Maktab so'zidagi m hamda t harflari orasidagi tovushlarni ayting.

2-topshiriq. Bir o'quvchi uchta harfni, ikkinchisida ikkita harf bor. Birinchi o'quvchi nechta so'z, ikkinchi o'quvchi nechta so'z hosil qilish mumkin.

Birinchi topshiriq tovushlar mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarning harflarni o'zlashtirganligini va xotirasida qanday saqlanganligini bilish maqsadida berildi va o'quvchilarning javobi eshutilib, tahlil qilindi.

Xuddi shunday ikkinchi topshiriqda o'quvchilarni ijodiy izlanishga yo'naltirilgan topshiriq berilgan bo'lib, o'quvchilar qo'llaridagi harflardan nechta so'z tuzish mumkinligi topshirildi va o'quvchilarning bilim, ko'nikmasi tekshirib ko'rildi. Bunday topshiriqlarga o'quvchi o'z faoliyatida duch kelishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning tasavvur doirasining qanchalik keng darajada ekanligini, shu bilan birgalikda xotirasida saqlangan tovushlar tizimini ishga solish qobiliyatini va ijodiy topqirligini amalga oshiradi.

O'quvchilar xotirasiga mo'ljallangan o'quv topshiriqlarining psixologik asosini xotira hodisalari – o'rganilgan bilimlarni esga tushirish, bilim va faoliyat usulini xotirada tiklab, aytilgan o'quv holatiga tatbiq etish, tatbiq etish jarayonida bilim va faoliyat usullarini yanada takomillashtirish tashkil etadi.

Mashq – u yoki bu mavzu doirasida bilim, faoliyat usullarini bir xil o'quv sharoitida bajarishga oid o'quv topshirig'idir. Mashq qilish jarayonida bilimlar esga tushiriladi, esga tushirilgan bilim, faoliyat usuli aytilgan o'quv holatiga tatbiq qilinadi. Mashq qilish natijasida shaxs faoliyati takomillashtiriladi. Bu hodisani nazarda tutib,

ayrim mutaxassislar mashq qilinadi iborasini ishlatishadi. O'quv topshirig'i bajariladi, mashq qilinadi.

Ona tilidan ijodiy topshiriqlar tizimini yaratish murakkab jarayon bo'lib, u o'ziga xos xususiyatga ega. Bu jarayonning yetakchi tarkibiy qismi o'qitishdir. O'qitish – bu o'qituvchining faoliyati bo'lib, u o'ziga xos maqsad, vosita, natijaga ega. O'qitish faoliyatining asosiy funksiyalari o'quvchilarga ta'lim berish, ularni aqliy rivojlantirish va tarbiyalashdan iborat. Ijodiy topshiriqlarni tayyorlash jarayonining yana bir tarkibiy qismi shunday tizimni yaratish vositalaridir.

O'qitish – bu faoliyat turi bo'lib, mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida ijtimoiy tajribaga yo'nalgan jarayondir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quv materiallari o'rtasida ikki xil yetakchi munosabat ajratiladi. O'qitish va o'quv materiallari, o'qituvchi va o'quvchi. Bu munosabatga ko'ra o'qituvchining o'quv materialiga ko'ra metodik ishlov berishini qayd etamiz. Masalan, 1-sinf o'quvchilariga alfavitdagi 29 harfdan iborat tizimdan foydalanib, gap tuzish haqidagi ijodiy topshiriqni taklif qilish mumkin.

Ijodiy topshiriqning sharti shunday bo'ladi. Birinchi so'z ikkita unli va beshta undosh tovushdan, ikkinchi so'z esa uchta unli sakkizta undosh tovushdan, uchinchi so'z esa uchta unli va uchta undosh tovushdan iborat bo'lgan mashq topshiriq. Bu topshiriq o'quvchilarning alfavitdagi tovushlarni qanchalik darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash bilan birgalikda ularni ijodiy tafakkur qilishga undaydi. O'quvchilar fikrlash natijasida berilgan topshiriq bo'yicha gap tuza boshlaydi. Kim birinchi bo'lib gapni to'g'ri tuzsa, shart bajarilgan hisoblanadi. U g'olib deb topiladi va rag'batlantirib boriladi.

Ta'lim jarayonining bosqichlarini hisobga olib, ijodiy topshiriqlarning quyidagicha funksiyalarini qayd etamiz:

- a) tayyorgarlik bosqichi yangi bilimlarni qabul qilishga hozirlik;
- b) bilimlarni bevosita idrok qilish bosqichida o'rganilayotgan mavzuning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish;
- v) mustahkamlash bosqichida o'rganilgan bilimlarni o'xshash o'quv holatlariga tatbiq qilish;
- g) bilimlarni tatbiq qilish bosqichida bilim va malakalarni yangi-yangi o'quv jarayonida ishlatish;
- d) bilimlarni umumlashtirish jarayonida umumlashtirish; tartibga tushirish funksiyalarini bajaradi. Bulardan ma'lum bo'ladiki, o'quv topshiriqlarining boshqa turlarga o'xshab, ijodiy topshiriqlar ham turli-tuman ishlarni hal qilish vazifalarini bajaradi.

4. Uslubiy aloqa topshirig'ini bajarish usuli – ijodiy topshiriqlarning yana bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Har qanday ijodiy topshiriq o'ziga xos yechilish usuliga ega.

Xullas, o'qituvchi u yoki bu ijodiy topshiriqni ta'limga tatbiq etar ekan, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qosimov F.M. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar ustida ishlash. – Buxoro. 2005. 138 b.
2. Hamrayev A.R. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish. Pedagogika fanlari nomzodi. Diss. –T.2005. -141 b.
3. Haitov A. Informatikadan mashqlarni kompyuterda bajarishning nazariy asoslari. – T.2004. -211 b.
4. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktori ... diss. –T.: 2003. 280 bet.
5. Adizov B.R. Ijodiy ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv// Xalq ta'limi jurnali, 2001.4-son. -102-104-betlar.
6. Qosimov F.M. Boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar tizimi. – T.: 2011.
7. Omonillayeva Maxfuza. (2023). METHODS OF USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING INDEPENDENT VOCABULARY TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. *International Journal of Pedagogics*, 3(12), 190-194. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue12-35>
8. B. Qurbonova, M Omonillayeva - Open Access Repository, 2023 [gamene hae-i-eng jeon 2gae-eong](https://gamene.hae-i-eng.jeon2gae-eong)
9. Omonillayeva Maxfuza. (2023). MAKTAB O'QUVCHILARIGA MUSTAQIL SO'Z BILAN O'QITISHDA INTERFAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Xalqaro pedagogika jurnali*, 3 (12), 190–194. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue12-35>